

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
TABIIYOT FANLARI FAKULTETI

“Himoyaga ruxsat etildi”

Tabiiyot fanlari fakulteti dekani

_____E.R.Yuzlikayeva

“ _____ ” _____ 2014 yil

5140400 – Biologiya ta'lim yo'nalishi 4 - kurs talabasi

Najimova Inobat Nasriddinovnaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: HISOR DAVLAT QO'RIQXONASI SUTEMIZUVCHI
HAYVONLARI

“Tasdiqlayman”

Zoologiya, anatomiya va
fiziologiya kafedrası mudiri

_____ D.A.Mamatqulov

“ _____ ” _____ 2014 yil

Ilmiy rabar: biologiya fanlari

doktori, professori

O.Mavlonov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

	Bet
KIRISH	3
1BOB. ALOHIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING ASOSIY SHAKLLARI.....	5
1.1. Davlat qo'riqxonalar va ularning huquqiy tartibi.....	5
1.2. Davlat milliy tabiat bog'lari.....	7
1. 3. Qorli tog'lar bag'ridagi qo'riqxona.....	8
1.4. Ekoturizm va Hisor qo'riqxonasi.....	13
II- BOB. HISOR DAVLAT QO'RIQXONASI SUTEMIZUVCHI HAYVONLARI VA NOYOB TURLARINI MUHOFAZA QILISH.....	15
2.1. Hisor qo'riqxonasi hayvonlarining umumiy tahlili	15
2.2. Hasharotxo'rlar turkumi – Insectivora.....	17
2. 3. Qo'lqanotlilar turkumi - Chiroptera.....	19
2.4. Tovushqonsimonlar turkumi - Lagomorpha.....	21
2.5. Kemiruvchilar turkumi - Rodentia.....	23
2.6. Yirtqichlar turkumi- Carnivora	28
2.7. Juft tuyoqlilar turkumi – Artiodactyla.....	45
XULOSALAR.....	49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	50
ANNOTATSIYALAR.....	52
LUG'AT.....	55

KIRISH

Hayvonot olami, umuman insoniyatning yashashi, hayoti faoliyatida juda muhim rol uynaydi. Ma'lumki, uy hayvonlari hisoblanadigan qoramol, qo'y, echki, to'ng'iz, ot, eshak, tuya, qolaversa it, mushuk kabi jonzorlar bizning hayotimizda tayin bir maqsad uchun boqiladi. Ayrim hayvon turlari biz uchun oqsil, moy, sut manbai, boshqasi xo'jalik uchun asqotadigan ishlarni bajaradi. Transportning oddiy namunasi sifatida foydalaniladigan yana biri esa uyni qo'riqlaydigan, yana boshqasi zararkunandalar bilan kurashda beminnat dastyor hisoblanadi.

Hayvonlar tabiiy biotsenozlardagi muvozanatni saqlab turishda xizmat qiladi. Umuman, hayvonlar dunyosini tashkil qiladigan jonivorlarning turlari juda ko'p. Ularning ikki millionga yaqin turlari borligi aniqlangan. Shuni aytish kerakki, hayvonot olami orasida insonga bevosita yordam beradigan foydalilaridan tashqari bir toifa jonivorlar ham bor, ular katta ziyon keltiradi.

Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro uyushmasining ma'lumotlariga qaraganda (1973), hozirga qadar er kurrasida 63 turga va 55 kenja turga kiradigan sut emizuvchi hayvonlar umuman yo'qolib ketgan, shuningdek hozir 600 turga yaqin hayvon nom-nishonsiz yo'qolish arafasida turibdi.

O'zbekiston hayvonot olamining turlari ko'p va ular rang-barang. Jumhuriyat hududida 650 dan ortiq umurtqali hayvonlar turlari, shu jumladan 79 baliq, 3 svda hamda quruqlikda yashovchilar, 57 sudralib yuruvchilar, 410 dan ziyod qushlar va 99 tur sut emizuvchilar yashaydi.

Mavzuning dolzarbligi: Er yuzida odam faoliyatining tabiatga ta'siri natijasida o'simlik va hayvonot olami tez o'zgaradi. Tabiiy ekologik muvozanatni saqlab turishni o'rganib olish uchun o'zgarmagan landshaftga ega bo'lgan, ya'ni o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmonlari, o'tloqlari, cho'li, suvi "sof tabiiy" holda o'zgarmasdan qolgan landshaft qismlarini saqlab turish lozim. Ekologik omillar ta'sirini aniqlash uchun bunday hudud foydalanilayotgan hudud bilan solishtiriladi. Qashqadaryo viloyati xududida joylashgan Hisor davlat qo'riqxonasi ham xuddi shu maqsadlarda tashkil qilingan.

Tadqiqot maqsadi: Hisor davlat qo'riqxonasi hayot kechiradigan sutemizuvlarning taksonomik tarkibini va ularni muhofaza qilinishi shart – sharoitlarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Hisor davlat qo'riqxonasining tashkil etilishi tarixi va u erda olib borilayotgan ilmiy va ma'rifiy ishlar bilan tanishish;
- Hisor qo'riqxonasining fiziko-geografik xususiyatlari, tabiati to'g'risida ma'lumotlar to'plash;
- Hisor qo'riqxonasida tarqalgan sutemizuvlarning noyob va foydali turlarini o'rganish va ularni sistemaga solish;
- To'plangan ma'lumotlarni tahlil etish va ularni bitiruv malakaviy ish shaklida himoyaga olib chiqish.

Mavzuning ahamiyati: Respublika kelguvsida ekologik turizmni rivojlantirish; noyob hayvonlarni kelguvsi avlodlar uchun saqlab qolish uchun respublikamiz tabiatshunoslari oldiga katta vazifalar qo'yilgan.. Ana shu sababdan ushbu qo'riqxona hayvonlarining hayotini o'rganish o'ta ahamiyatli tadqiqot hisoblanadi. Bundan tashqari bitiruv m alakaviy ish materiallaridan maktab zoologiya darslarida va o'quvchilar ongida eqologik tushunchalarni shaklllantirishda foydalanish mumkin.

I BOB
ALOHIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING
ASOSIY TURLARI

1.1. Davlat qo'riqxonalari va ularning huquqiy tartibi

O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko'paytirishda qo'riqxona, zakaznik va xalq hiyobonlarining ahamiyati kattadir. Bu maqsadda Buxoro viloyatida "Jayron" eqologik markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'riqlanadigan erlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq. Respublikamizda alohida qo'riqlanadigan 11ta tabiiy-hududiy ob'ekt, shu jumladan, 8 qo'riqxona bo'lib, ulardan 3 tasi - tog' mintaqasida, 3 tasi - daryo qayirlaridagi to'qaylarda va 2 tasi cho'l landshaftlarida joylashgan. Bular Chatqol tog'-o'rmon, Surxon, Qizilqum, Bodayto'qay, Nurota, Zarafshon, Hisor va, Zomin qo'riqxonalaridir. Bu qo'riqxonalarda bioeqologik tadqiqotlar olib boriladi.

Ta'kidlash joizki, davlat qo'riqxonalarini ta'rifi va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida aniq ko'rsatib berildi. Mazkur qonunning 10-moddasiga asosan:

- davlat qo'riqxonalari o'z oldiga oddiy, odatiy va noyob tabiiy majmuilar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondlarini saqlab qolish va o'rganish, tabiiy jarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadini qo'ygan tabiatni muhofaza etuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari hisoblanadi;

-davlat qo'riqxonalari hududidagi er, suv, er osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi xo'jalik foydalanishidan to'liq va bir umrga chiqarib olinadi hamda doimiy foydalanish uchun qo'riqxonalarga bepul beriladi. Davlat qo'riqxonalari erlarini ijaraga berish taqiqlanadi.

Hududi tabiiy landshaftlarning xos bo'laklarlan iborat bo'lgan va belgilangan tartibda biosfera qo'riqxonalarining xalqaro shoxobchasiga kiritilgan davlat qo'riqxonalari biosfera davlat qo'riqxonalari maqomiga egadir.

Davlat qo'riqxonalari zimmasiga:

- muhofaza ostiga olingan majmuani tabiiy holatda asrash;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

- ruyobga chiqarilganda qo'riqxonalar va muhofaza etilayotgan tegrallarning tabiiy majmuiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik ob'ektlari va boshqa ob'ektlarning loyihalari hamda ularni joylashtirish kesmalarining davlat eqologik ekspertizasida qatnashish;

- tabiatni muhofaza qilish sohasida ilmiy xodimlar va mutaxassislar tayyorlashga hamkorlik qilish;

- ekologik bilimlarni targ'ib etish vazifalari yuklanadi.

Davlat qo'riqxonalarini tashkil etish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi. Davlat qo'riqxonalarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir qo'riqxona qaysi idoraning tasarrufida bo'lsa, shu idora O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishib turib tasdiqlaydigan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Qo'riqxonalarining hududlarida va ularning qo'riqlanma tegrallarida iqlimlashtirish maqsadida o'simliklar va jonivorlar turlarini va xillarini joylashtirish taqiqlanadi. Davlat qo'riqxonalarida ular to'g'risidagi tasdiqlangan nizomga muvofiq yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Qo'riqxonalarining yoki ularda mutasaddilik qiluvchi idoralarning xodimi bo'lmagan fuqarolarning qo'riqxonalar hududida bo'lishiga ularda ana shu idoralar yoki qo'riqxona ma'muriyati bergan ruhsatnoma bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalarining faoliyati ham mazkur qonun bilan tartibga solinadi. Jumladan qonunning 14-moddasi davlat qo'riqxonalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borish masalasiga bag'ishlangan va quyidagi holatlari ko'rsatilgan.

Ilmiy tadqiqotlarni yo'lga qo'yish va o'tkazish uchun davlat qo'riqxonalari o'z ilmiy xodimlar shtati bilan ta'minlanadi. Ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, chet ilmiy tashkilotlarni va ayrim mutaxassislarni jalb etish yo'li bilan ham o'tkazilishi mumkin. Davlat qo'riqxonalarida olimlar kengashi (ilmiy kengash) tuziladi.

"Tabiat solnomasi" ni yuritish barcha davlat qo'riqxonalari uchun majburiydir. Davlat qo'riqxonalarining ilmiy jamg'armalarini saqlash muddati chegaralanmaydi. Davlat qo'riqxonalari ilmiy asarlarni nashr etish huquqiga ega.

Davlat qo'riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi muvofiqlashtirib boradi.

1.2.Davlat milliy tabiat bog'lari

Davlat milliy tabiat bog'lari bilan bog'liq bo'lgan barcha ekologik-huquqiy muammolar O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Qonunning III-bo'lim, 15-18-moddalari bevosita mazkur masalaga bag'ishlangan.

Ushbu qonunda davlat milliy tabiat bog'larining ta'rifi va aniq vazifalari ko'rsatib berilgan. Jumladan, ana shu qonunning 15-moddasiga ko'ra, davlat milliy tabiat bog'lari tabiatni muhofaza qilish muassasasi bo'lib, ularning hududlari (akvatoriylari) alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan tabiiy majmuilarni qamrab oladi.

Davlat milliy tabiat bog'lari hududi davlat milliy bog'lariga egalik qilish yoki ulardan foydalanish uchun beriladigan erlarda, shuningdek boshqa er egalari va erdan foydalanuvchilarning erlarida joylashadi.

Davlat qo'riqxonalarida:

-rekreatsiya, ma'rifiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun tabiiy majmuilar va tarixiy-madaniy meroslarni asrab qolishni ta'minlaydigan ish tartibiga rioya etish;

-shikast etgan tabiiy majmuilarni tiklash;

-tarix, madaniyat, me'morchilik obidalarini saqlab qolish;

-turizm, ekskursiya va dam olish uchun sharoit yaratish;

-ekologiya bilimlarini targ'ib qilish;

-zaxiralarni tejaydigan, eqologik texnologiyalarni qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi va boshqa faoliyatda ishlatishga joriy etishga ko'maklashish;

-tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy qadrlar va mutaxassislar tayyorlashga hamkorlik qilish vazifalari yuklatiladi.

Davlat qo'riqxonalarini boshqarish ular faoliyati tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq qaysi vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tasarrufida bo'lsa, shu vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan amalga oshiriladi. Har bir qo'riqxona qaysi idora tasarrufida bo'lsa, shu idora tasdiqlab beradigan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi. Davlat qo'riqxonalarining maqomi va mablag'lari ham hayotiy, eqologik ahamiyatga ega bo'lib qonunchilikda quyidagicha ta'riflangan.

Davlat qo'riqxonalarilari yuridik shaxs bo'lib, davlat byudjetini ta'minlanadi, mustaqil balansda turadi, ularning bank muassasalarida o'z hisob raqamlari, o'z nomida va O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan muhri bo'ladi.

Qo'riqxonalar hududida tabiiy majmui va ob'ektlar holatini, ularning rekreatsiya, madaniy va estetik qimmatini inobatga olgan holda muhofaza etish va ulardan foydalanishning tabaqalashtirilgan tartibi belgilab qo'yiladi. Qo'riqxonalarda ular hududining tabiiy, ilmiy, estetik va madaniy qimmati pasayishiga olib keluvchi boshqa faoliyat turlari taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin.


1. 3. Qorli tog'lar bag'ridagi qo'riqxona

Yilning 4 faslida ham qor bilan qoplangan Hazrati Sulton ota tog'ining eng yuqori - 4350 metr balandlikdagi Bibi olmos cho'qqisi viloyat hududidagi tog'larning eng baland nuqtasi hisoblansa ajab emas. Tog'lardan enib kelgan qor va yomg'ir suvlari hudud tabiatiga qishin-yozin go'zallik, yashillik, ko'rkamlik baxsh etib turadi. Ana shu qorli tog'lar bag'rida yastangan saltanat Hisor davlat qo'riqxonasidir. Bu erda afsonaviy Suvtushar sharsharasimi, Hazrati Sulton

tog'ining sirli-sinoatli mo''jizalari, qadimdan so'ylaguvchi dinovavr izlari, xalqaro va O'zbekiston Qizil kitobiga kirgan noyob turlar mavjud.

Bundan 28 yil oldin - 1983 yilda bir-biriga tutash bo'lgan Miraki va Qizilsuv qo'riqxonalari birlashtirilib, Hisor davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan edi (1.3.1-rasm). Hisor tog' tizmasi shimoliy-sharqiy qismining eqologik tizimini - tabiiy majmualarni asl holida saqlab qolish va uni kelajak avlodga o'zidek etkazib berish, ulardagi tabiiy jarayonlarni ilmiy o'rganish va tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida qilingan bu sa'y-harakat albatta,

qisqa fursat ichida o'z natijasini berdi. Hayvonot va nabotot dunyosining noyob turlarini saqlab qolishgina emas, ularni ko'paytirishga ham erishildi.



1.3.1- rasm. Hisor qo'riqxonasining xaritasi

Qo'riqxonada O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 36 tur o'simlik, 7 ta hayvon turi borligi, bu erning tabiati nihoyatda noyobligidan dalolatdir, -deydi qo'riqxona direktori o'rinbosari Baxtiyor Oromov. Yana shuni aytish kerakki, tabiiy majmualarning hech birida 870 tur o'simlik uchramasa kerak. Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan qor qoplari, o'rmon olmaxoni, qizil sug'ur, katta taqa burun ko'rshapalagining qo'riqxonamizda uchrashi ularni asrash, ko'paytirish borasida zimmamizda jahoniy mas'uliyat borligini anglatadi. O'zbekiston Qizil kitobining sahifalarida hayvonlarning kamayib va yo'qolib borayotgan turi hisoblangan O'rta Osiyo qunduzi, qor qoplari, Tyan-Shan qo'ng'ir ayig'i, kichik taqa burun ko'rshapalagi, Turkiston silovsini, qushlardan qor g'ajiri, itolg'i, burgut, boltayutar, qora laylak, lochin, o'simliklardan lolaning 5, astragal o'simligining 15, shirachning bir necha turi va yovvoyi no'xatning o'z holicha saqlab ko'paytirib kelinayotgani ilmiy xodimlarning ishi nihoyatda tig'iz ekanligidan dalolatdir.

Bundan 3 yil oldin Qizil kitob sahifalaridan anzur piyozi chiqarilganini ko'pchilik bilmasa kerak. Boisi bu xushta'm ne'matni ko'paytirish yo'lidagi sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, kam uchraydigan o'simliklar qatoridan joy olmay qoldi. Bunda qo'riqxona jamoasining ham hissasi borligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, tanasi yo'g'on va poyasi uzun Suvorov piyozi bu erda keng tarqalgan.

Hudud tabiatining rangbarangligi shundaki, bu erda sut emizuvchilarning 31, qushlarning 116, sudralib yuruvchilarning 17, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning 2 turi mavjud. Albatta, ularning har biri qo'riqxona boyligi hisoblanadi. Qo'riqxona hududidagi ziyoratgoh va tabiiy yodgorliklar - Bovurchi, 675 metrlik Amir Temur, 90-100 metrlik G'ul va Mansur g'orlari, O'g'ri zindoni, Ho'kizburun, Xo'jakulbars va Suvtushar sharsharalarining go'zal manzarasi boshqa joyda uchramasligi bilan betakrordir.

Qo'riqxonaning Qizilsuv bo'limi dovrug'i uzoqlarga tarqalgan. Bu erdagi Qal'i sheron darasining boshlanish qismining chap tomonidagi 45-50 darajali burchakli ko'k qoya ustida er yuzida kamyob bo'lgan Dinozavrning izlari qolganligi qo'riqxona noyob inshootlar majmui bo'libgina qolmay u qadimiy

manzil ekanligiga bir shahodatdir. Jami 34 ta bo'lgan izlarning eng kattasining bo'yi 61, eni 41 santimetrni tashkil etadi.

Tog'lar bag'ridagi bu saltanatning har bir qarichi hayratomuz, har giyohu jonivori noyobu kamyob. Shuning uchun ham bu hilqat muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida davlat muhofazasiga olingan. Bu erda hudud tabiati o'zgarishlari, Qizil kitobga kirgan hayvonot turlari biologiyasini o'rganish va o'simliklar olamini tadqiq qilish borasidagi ilmiy izlanishlar ko'lami yil sayin kengayayotgani bioxilma-xillikni asrab qolish yo'lidagi eng xayrli ish, deb aytish mumkin.

Qo'riqxonada 80986,1 gektar maydonni egallagan bo'lib, uning hududidagi Miraki, Qizilsuv, Tanxozdaryo, G'elon bo'limlarining tabiiy landshaftlari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ekotizimlari rang-barangligi bilan bir-biridan farq qilishini ham aytib o'tmoq joiz.

1- jadval

Umurtqali hayvonlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi

Sinflar	Jahonda	SNG davlatlarida	O'zbekistonda	Qo'riqxonada
Baliqlar	24542	500	77	2
Amfibiyalar	4956	34	2	2
Repteliyalar	7427	47	58	17
Qushlar	9790	764	432	116
Sutemizuvchilar	4656	332	108	31

Mazkur hududning betakror va betimsolliigi nimalarda namoyon bo'ladi? Avvalo, vodiyni ko'rinishi o'ziga xos va maftunkor. Tekislik sekin-asta ko'tarilib, avval qir-adirlar, past tog'lar boshlanadi. So'ngra bu tog'lar yanada yuksakroq, elkasidan oppoq qorlar arimaydigan tog'larga, sarbaland qoyalar va bulutlarni ham pastda qoldirgan cho'qqilarga tutashib ketadi. Osmon qadar yuksalgan tog' tizmalari quchoqlarini keng ochgancha butun vodiyni bag'riga bosib turgandek ko'rinadi. Hisor va Zarafshon tizmalari tarkibiga kiruvchi bu tog'lar

viloyatning kunchiqar tarafida go'yo ulkan qal'a misoli qad ko'tarib turibdi. Darvoqe, "Hisor" so'zining lug'aviy ma'nosi ham istehkom, o'rab olingan, qo'rg'on mazmunini ifodalaydi. Ikki tog' go'yo ikki aka-uka. Ukasining bo'yi 2500, akasining balandligi esa qariyb 4400 metrga etadi. Kitob tumanidan Dehqonobodgacha cho'zilgan Hisor tizmalari qishda sovuq havo oqimi yo'lini to'sib, iqlimni nisbatan yumshatib turadi.

Bu hududning geologik jihatdan ana shunday tuzilishi, ajoyib tabiati va iqlimi biologik xilma-xillikning saqlanib qolishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Vodiyning o'simliklar dunyosi, hayvonot olami nihoyatda boy. Bu erda giyohlar va dov-daraxtlar, parrandalar va darrandalarning juda kamyob, ko'pchilik uchun ekzotika bo'lib ko'rinadigan noyob turlari ham uchraydi. Ana shu biologik xilma-xillikni tabiiy holda saqlab qolish va ularni ilmiy asosda o'rganish, tadqiq etish maqsadida Hisor davlat qo'riqxonasi tashkil qilingan. U nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyoda ham eng yirik qo'riqxona bo'lib, hududi 80896 gektarni tashkil etadi. Dengiz sathidan 1700-1750 metr balandlikdan boshlanib, 4339 metr yuksaklikdagi qoyalar bilan tugagan. Qo'riqxona hududida o'simliklarning 870 dan ortiq turi o'rganilgan.

Qo'riqxona hududining 24000 gektari daraxtzor, shundan 12000 gektari archalar bilan qoplangan. Bu erda to'rt kishining ham qulochi etmaydigan 800-1000 yillik archalar uchraydi. Archalar va boshqa daraxtsimon o'simliklar asosan 3000 metrgacha balandlikda o'sishi kuzatilgan. To'g'ri 3150 metr balandlikda ham archalar uchraydi, lekin bunday yuksaklikda havo harorati past bo'lganligi uchun ularning bo'yi o'smay, er bag'irlab qolgan. Umuman, 3000 metr balandlikdan so'ng asosan o'tsimon o'simliklar o'sadi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, er yuzasi dengiz sathiga nisbatan qanchalik balandlashib boraversa, havo harorati ham sekin-asta shunchalik pasayaveradi.

Qo'riqxona hayvonot olami ham o'ziga xos. Qulay tabiiy sharoit mavjudligi hamda muhofaza ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligi tufayli bu erda ba'zi hayvonlarning soni ko'payib bormoqda. Masalan, 2007 yilda 24 ta qor qoplarni hisobga olingan. Vaholanki, qo'riqxona tashkil etilgan dastlabki yillarda ularning

soni 4 tani tashkil etgan. Odamlar kiyik deb ataydigan Sibir tog' echkisi, to'ng'iz, bo'ri, ayiq, silovsin, qizil sug'ur va boshqa hayvonlar ko'proq uchraydi. Qor qoplari Jahon va O'zbekiston Qizil kitoblariga, oq tirnoqli qo'ng'ir ayiq, Turkiston silovsini, O'rta Osiyo qunduzi, ko'rshapalakning oq qorinli o'q quloq turi O'zbekiston Qizil kitobiga, kichik taqaburun turi esa Jahon Qizil kitobiga kiritilgan. Qushlarning esa 160 turi uchrashi aniqlangan. Ulardan qora g'ajir Jahon Qizil kitobiga, burgut, boltayutar, oq boshli tasqara, qora laylak O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.

1.4. Ekoturizm va Hisor qo'riqxonasi

2012 yilning 17-19 iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, "EKOSAN" xalqaro jamoatchilik fondi va "Chinor" ekologik nashriyat kompaniyasi Hisor davlat qo'riqxonasiga media sayohat uyushtirdi. Mazkur sayohat O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining "Aholining atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish bo'yicha xabardorligini oshirish" loyihasi hamda Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish sohasida eng yaxshi jurnalistik ishlar bo'yicha "Qoplon-2012" ko'rik-tanlovi doirasida tashkillashtirildi.

2012 yilning 23 aprelida O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida «Uzbekistan International Travel Workshop» an'anaviy sayyohlik forumi taqdimot marosimi «Workshop - 2012» nomi ostida bo'lib o'tdi. Forum "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va "Buyuk Ipak yo'li" reklama agentligi hamkorligida tashkillashtirildi. O'zbekistonda ushbu forumni har yili sayyohlik mavsumi ochilishidan oldin o'tkazish an'anaga aylangan.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun sayyohlik iqtisodiyot, mintaqalarning ijtimoiy rivojlanishida rag'batlantirish muammolarini hal etishda, shuningdek davlat byudjetini to'ldirishda katta ahamiyatga ega. Lekin butun dunyo yalpi milliy mahsulotining tahminan 10 foizi sayyohlik ulushiga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida ko'pchilik mamlakatlar uchun mazkur sohaning muhimligi va

ahamiyatini ko'rsatadi. So'nggi paytlarda biz "eqologik sayyohlik" tushunchasi bilan tez-tez to'qnash kelyapmiz.

Tabiat go'zalligini tasmaga muhrlash, tabiiy ranglarni va takrorlanmas daqiqalarni saqlab, nur va soya o'yinini ifoda etib berish – bu haqiqiy san'at. Lekin, takrorlanmas tabiiy energetikani, bo'yoqlar va kayfiyatni bera oladigan fotosuratlar haqiqiy san'at asariga aylanadi. Ulardan nigoh uzib bo'lmaydi.

II BOB

HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASI SUTEMIZUVCHI HAYVONLARI VA NOYOB TURLARINI MUHOFAZA QILISH

2.1. Hisor qo‘riqxonasi hayvonlarining umumiy taxlili

Hisor davlat qo‘riqxonasida sutemizuvchmlar sinfiga mansub 24 tur hayvon tarqalgan. Bu miqdor O‘zbekiston faunasi tarkibidagi hayvonlarning to‘rtidan bir qismidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Qo‘riqxonada tarqalgan hayvonlarning hammasi Yuksak sutemizuvchilar kenja sinfiga kiradi. Ularni 6 turkum (Hasharotxo‘rlar, Qo‘lqanotlilar, Tovushqonsimonlar, Kemiruvchilar, Yirtqichlar, Jufttuyoqlilar) va 13 oilaga ajratish mumkin. Quyida qo‘riqxona sutemizuvchilari faunasi taksonomik jihatdan tahlil qilib berilgan:

Qo‘riqxona sutemizuvchilarining taksonomik tarkibi quyidagicha:

Sut emizuvchilar sinfi - Mammalia

Yukasak sutemizuvchilar kenja sinfi – Theria

Hasharotxo‘rlar turkumi – Insectivora

Tipratikanlar oilasi – Erinaceidae

1. Quloqdor tipratikan - *Hemiechinus auritus*.

Qo‘lqanotlilar turkumi - Chiroptera

Taqaburunlar oilasi – Rhinolophidae

2. Katta taqaburun - *Rhinolophus ferrimeguinum*

3. Kichik taqaburun - *Rhinolophus hipposideros*

Silliqburunlilar oilasi - Vespertilionidae

4. Quloqdor ko‘rshapalak - *Plecotus auritus*

5. O‘tkir quloq tunshapalak - *Myotis blythi*

6. Oq qorinli o‘qquloq - *Otonycteris hemprichi*

7. Kechki kojan - *Vespertilio serotinus* Schreber.

Tovushqonsimonlar turkumi - Lagomorpha

Tovushqonlar oilasi - Leporidae

8. Qum tovushqoni - *Lepus tolai* Pallas
Kemiruvchilar turkumi - Rodentia
Jayralar oilasi - Hystricidae
9. Jayra - *Nystix leucura*.
Sonyalar oilasi - Gliridae
10. Oʻrmon sonyasi - *Dryomys nitedula* Pallas
Sichqonlar oilasi - Muridae
11. Uy sichqoni - *Mus musculus* Pallas
12. Turkiston kalamushi - *Rattus rattoides*.
13. Oʻrmon sichqoni - *Apodevus sylvatecus*
14. Oddiy dala sichqoni - *Microtus arvalis*
15. Qizil sugʻur (Mensbir sugʻuri) - *Marmota Menzbieri*
Koʻrsichqonlar oilasi - Spalacidae
16. Koʻrsichqon - *Ellobius tanceri*
Yirtqichlar turkumi - Carnivora
It (boʻri)simonlar oilasi - Canidae
17. Boʻri - *Canis lupus* L.
18. Tulki - *Vulpes vulpes* L.
Mushuksimonlar oilasi - Felidae
19. Turkiston silovsini- *Lynx lynx* (L.,1758) ssp.isabellinus(Blyth,1847)
20. Yovvoyi mushuk - *Felis lybica* Forster
21. Qor qoploni, yani irbis - *Uncia uncia* Schreber,1775
Suvsarlar oilasi - Mustelidae
22. Boʻrsiq - *Meles meles* L.
23. Olaqoʻzan - *Vormela peregusna* Guld.
24. Oʻrta Osiyo qunduzi - *Lutra lutra seistanicus*
Juft tuyoqlilar turkumi – Artiodactyla
Toʻngʻizlar oilasi - Suidae
25. Yovvoyi toʻngʻiz - *Sus scrofa* L .
26. Sibir tog' echkisi - *Capra sibirica* Pall.

Ssutemizuvchilar orasida kemiruvchilar va yirtqichlar turqumlari boshqalarga nisbatan xilma-xil. Mazkur ro'yxatda keltirilgan hayvonlardan 4 turi, xususan, buxoro qo'yi, morxo'r, jayron, turkiston silovsini O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan. Mavjud turlardan bir qanchasi, xususan bo'ri, to'ng'iz, olaqo'zan, yovvoyi mushuk, qum quyoni va boshqa turlar soni tobora kamayib bormoqda.

2.2. Hasharotxo'rlar turkumi – Insectivora

2.2.1. Quloqdor tipratikan - Hemiechinus auritus G.M.(1-rasm)

Qishlovda, bog'rog'larda, katta shaharlarning chetlarida, tog'oldi dashtlari va savdolarida tun paytlari shalpangquloq tipratikanni uchratish mumkin. Bu hayvon och kulrangda rangda va quloqlarining nisbatan uzun bo'lishi bilan boshqa tipratikanlardan farq qiladi. Qulogi boshining yarmisidan ancha uzun va oldinga qayrilgan bo'lib, ko'zidan ancha nariga boradi. Qornining oq rangda bo'ladigan muynasi yumshoq va mayin. Tanasining uzunligi 153—190, qulog'ining uzunligi 30—40, ignalarining uzunligi 30 mm gacha.

Shimolda Ustyurt tekisligidan to janubda Termizgacha, sharqda Toshkent va Farg'ona vodisidan to g'arbda Buxoro va Xorazmgacha butun O'zbekistonda keng tarqalgan bo'lib, sahrolar va tog'oldi joylarida yashaydi. Tog'larda (1000 m dan balandda) uchramaydi. Kunduzi yuzagina inida, devor yoriqlarida yoki qalin changalzorlar ichida yotib, vaqtini o'tkazadi. Qishqi uyqudan turganidan keyin bahordagina tipratikanlar oftobga chiqib, soatlab isinib yotadi.

Urg'ochilari iyunda uchradan ettitagacha ko'zi yumuq qipqizil bola tug'adi. ular bir necha kundan keyin yumshoq ignalar bilan qoplanadi. Bu vaqtda onasiinning atrofida ov qilib yuradi. Urg'ochi tipratikan tun bo'yi ikki-uch mahal bolalarining oldiga kelib ketadi. Erkaklari alohida yashaydi. Ular tunda ko'pincha inidan bir kilometrcha nariga ketib qoladi. Ba'zan iniga qaytib kelishga ulgurmay qoladi va qanday bo'lmasin biror chuqurchaga tushib olib, o'sha erda kechgacha yotadi.

Tipratikan maktabdagi tirik tabiat burchaklarida yashashga yaxshi o'rganadi. Uning qanday oziqni ma'qul ko'rishini va bir kecha kunda qancha oziq eyishini kuzatib borish kerak. Endigina onasidan tug'ilgan tipratikan bolalarining rivojlanishini



2.2.1-rasm. Quloqdor tipratikan - *Hemiechinus auritus* G.M.

kuzatib borish diqqatga sazovordir. Dastlabki paytlarda ularni qo'lga olish yaramaydi, chunki ular o'zi tug'ilgan joy hidini yo'qotib qo'yadi va onasi ularni tanimasdan g'ajib qo'yishi mumkin.

Tipratikanlar, asosan hasharotlar bilan, shuningdek, sichqonlar, ba'zan ilonlar va kaltakesaqlar bilan oziqlanadi. Zararkunanda hasharotlar va kemiruvchi hayvonlarni kirib, foyda keltiradi. Odam va uy hayvonlari uchun xavfli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini tarqatadigan o'tloq kanalari yilning ma'lum bir fasllarida tipratikanlarda ko'p bo'ladi. Bu kanalar tipratikanlarning ignalari orasiga yopishib qoladi va tipratikan ulardan qutula olmay qoladi.

2.3. Qo'lqanotlilar turkumi - Chiroptera

2.3.1. Kichik taqaburun -*Rhinolophus hipposideros* spp. (Bechstein, 1880)

midas Andersen, 1905 (2.3.1-rasm)

Maqomi. 2 (VU:D): Zaif, Qiskarib borayotgan, mozaik tarqalgan o'troq kenja tur. TMXI qizil ro'yxatiga kiritilgan.

Tarqalishi. Oloy tog'lari (Shoximardon qishlog'i atroflari), Nurota, Zarafshon, Hisor tog'lari., Ugom, Peckom daryo vodiylari, Toshkent shahri atroflarida uchraydi. O'zbekistondan tashqarida: O'rta Osiyo mamlakatlari, Eron, Afg'oniston, Pokiston. Evropa, Afrika shimoli, Turkiya, Arabistonda - boshqa kenja turlari.



2.3.1-rasm. Kichik taqaburun -*Rhinolophus hipposideros* spp.

Yashash joylari. Tekisliklar, tog' etaklari va dengiz sathidan balandligi 2500 metrgacha bo'lgan o'rta qismlari, vohalar.

Soni. Doimo kam bo'lgan. Odatda yakka qolda yoki kichik galalarda (3-5 ta) uchraydi, ba'zan 15-300 ta bo'lib koloniya hosil qiladi. So'nggi o'n yilliklarda soni keskin kamayib ketdi.

Yashash tarzi. Aprel-oktyabrda kechalari faol, kunduzi tashlandiq binolarda, g'orlarda, qoyalarning kovaklarida, eski er osti yo'llarda bekinadi, o'sha erda qishlaydi. Bahorgi va kuzgi ko'chish doirasi - 10 km gacha. Sentyabr-oktyabrda, ba'zan aprelda juftlashadi; urg'ochilari bahor va yozda koloniyalar hosil qiladi. Iyulda bolalaydi. Bolalari iyul-avgustda uchirma bo'ladi. 2-3 qishlovdan so'ng jinsiy voyaga etadi. Tunda uchadigan hasharotlar bilan oziqlanadi.

Cheklovchi omillar. Yashirinadigan joylarida bezovta qilinishi.

Ko'paytirish. Ko'paytirilmagan.

Muhofaza choralari. Ishlab chiqilmagan.

2.3.2. Oq qorinli o'qquloq - *Otonycteris hemphchi* Peters, 1859(2.3.2 - rasm)

Maqomi. 2(VU:R): Zaif, tabiatan kamyob, lokal tarqalgan o'troq tur.



2.3.2 - rasm. Oq qorinli o'qquloq - *Otonycteris hemphchi* Peters, 1859

Tarqalishi. Ko'xitang, Nurota, Qurama tog'lari, Sirdaryo, Zarafshon daryolari vohalari. O'zbekistondan tashqarida: Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyo, Hindiston.

Yashash joylari. Tekisliklar, vodiy, tog' etaklari dengiz sathidan balandligi. 1000 metrgacha bo'lgan qismi va vohalar.

Soni. Doimo kam bo'lgan. Odatda yakka holda yoki 3-7 tadan kichik guruhlar bo'lib uchraydi, Urg'ochilari ko'payish davrida 15-25 tadan koloniyalar hosil qiladi.

Yashash tarzi. O'zbekistonda etarlicha o'rganilmagan. Aprel-oktyabrda tungi paytlari faol, kunduz kunlari tashlandiq xarobalar, qoyalarga, qoyalar yoriqlariga, yoki er osti yo'llariga bekinadi. Yakka-yakka holda qishni ham o'sha erda o'tkazadi. Bahor va kuzda 100 km gacha ko'chadi. Kuz yoki bahorda juftlashadi, iyun-iyulda 1-2 tadan bolalaydi. Bolalari iyul-avgustda ucha boshlaydi, bir qishlovdan so'ng jinsiy voyaga etadi. Tunda uchadigan hasharotlar bilan oziqlanadi.

Cheklovchi omillar. Berkinadigan joylarida bezovta qilinishi.

Ko'paytirish. Ko'paytirilmagan.

Muhofaza choralari. Nurota qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy bog'ida muhofaza ostiga olingan. Saqlanib qolgan barcha populyatsiyalarini aniqlash, muhofaza qilishni tashkil etish, areali, soni va yashash tarzini o'rganish lozim.

2. 4.Tovushqonsimonlar turkumi - Lagomorpha

2.4.1. Qum tovushqoni - *Lepus tolai* Pall.(2.4.1-rasm)

O'zbekistonning tuproq yo'llaridan kechalari avtomobilda yurib qum duyonini ko'rish mumkin. Bu hayvon sakrab chiqib, chiroq, nurida ko'zi qamashganidan bir necha lahza turadi, yo'l yoqasidagi butalar orasiga kirib goyib bo'ladi. U malla va oq tovushqondan bir muncha kichikroq. Tanasi uzunligi

46—54 sm, og'irligi 1700—2300g keladi. Tanasi ustki tomoni jigarrang yoki kulrang, ostki tomoni oq. Tog' tovushqonlari tekisliklardagiga nisbatan to'qroq rangda bo'ladi.

Qum quyon butun O'zbekiston bo'ylab tarqalgan: Ustyurt, Qizilqum, Farg'ona vodiysida, respublikaning janubidagi tog'lar, tog'oldi joylari va sahrolarda uchraydi. Daryolarning vodiylaridagi to'qay changalzorlarida ko'proq. Qum, gil va shurxoq yerli sahrolarda, keng bargli va igna bargli o'rmonlar, tog'oldi va tog'lar, alp o'tloqlarida uchraydi. Kunduz kuni ching'il, yulg'un, jiyda ostida yoki qalin o'sgan qiyoy orasida, bazan harobalar va paxsa devorlar tagida yotadi.

Yoz kunlari deyarli hamisha tunda oziq kidirib chiqadi, qishda erta saharda, oqshomi kezi va tunda aktiv bo'ladi. Bahor va yozda o'simliklarning yashil qismlari bilan oziqlanadi. O'lar qurib qolganida ildizlar va piyozchalarni kavlab eydi. Qishda daraxt va butalarning shoxlari va po'stloqlarini gajiydi.



2.4.1-rasm. Qum tovushqoni (*Lepus tolai* Pall.)

Qo'yonlar juda serpusht bo'ladi. O'zbekiston janubida, chamas, kamida 3—4 marta bolalaydi. Urg'ochilari 3—6 tadan bola tug'adi. Termiz atroflarila birinchi to'qqan bolalarini fevral oxirlarida uchratish mumkin. Urchish davri sentyabrgacha

davom etadi. Urg'ochisi bolalarini atigi bir necha marta emizadi. So'ngra bolalari mustaqil hayot kechira boshlaydi. 10—11 oylik bo'lganida jinsiy voyaga etadi.

2.5. Kemiruvchilar turkumi - Rodentia

Yilning turli paytlarida bolalaydi. Bu hayvonlar bahorda bolalaydi degan ma'lumotlar bor. Yangi tug'ilgan bolalarini yoz oxirlarida ham topish mumkin. Har safar 2—6 tadan bola tug'adi.

2.5.1. O'rmon sonyasi - Dryomys nitedula Pallas.(2.5.1-rasm)

Bargli o'rmonlarda va tog'dagi qishlodlarning bog'larida ko'zlari katta-katta, dumi baroq va uzun hamda quloqlari dumaloq kelgan kichkinagina hayvon — o'rmon sonyasi yashaydi. Tanasining uzunligi 9—11, dumining uzunligi 7—12 sm. Massasi 60 g gacha, panjalari daraxtlarga o'rimalab chiqishga moslashgan. Orqa oyog'ining uchinchi barmog'i hammadan uzun. Orqasidagi juni och qulrang - qo'ng'ir yoki qora, kulrang-jigar rang tusda. Tumshug'i bilan peshonasi qoramtirroq. Ko'zlarining atrofiga va qulog'ining tagida qoramtirroq. to'q rangli xollari bor. Yoshlarining juni voyaga etgandagilariga qaraganda to'q kul rang tusda, kaltaroq va tekisroq bo'ladi. Kul rang tusda bo'ladigan dumi yassilanib kelgan, xuddi tarab qo'ygandek ancha uzun quyuq junlari bor. Quloqlari kalta va siyrak jun bilan qoplangan. Bu hayvon yong'oqzorlar, bargli o'rmonlar, buta va changalzorlari, mevali bog'larda yashaydi. Tog'larda 2000 m gacha balandlikka ko'tariladi.

Yozda uyalarida yashaydi, bu uyalarini yashil barglar va o't-o'lanlarning poyalaridan daraxtlarning (yong'oq, do'lana, shumtol daraxtlarining) ayrilariga soladi. Sharsimon shaklda bo'ladigan uyasi chumchuq iniga bir qadar o'xshab ketadi, lekin ancha puxtarroq bo'ladi. Ba'zan daraxtlarning kovagiga yoki odatda odamlar yashamaydigan imoratlardagi yoriqlarga uya quradi. Ahyon-ahyonda qushlarning uyalaridan foydalanadi. Inlarga bekinib oladi ham. Sovuq tushishi bilan qishqi uyquga kirib, qishni uyquda o'tkazadi.



2.5.1- rasm. O‘rmon sonyasi (*Dryomys nitedula* Pallas.)

Bu kemiruvchi hayvon erda, daraxtlarning tanasi, shoxlari va turtib chiqib turgan qoya va toshlarda juda yaxshi yugurib yuradi; xavf-xatar tug‘ilib qolganida katta balandlikdan erga sakrab tushadi. Izg‘irin payti va tunda, goho kunduzi ham aktiv bo‘ladi. Odatda kunduzi boshpanasiga kirib, uxlab yotadi.

Ovqatini daraxtlar, butalar va erdan qidirib topadi. Danakli mevalar (o‘rik, do‘lana, shuningdek yong‘oq, olma va boshqalar) va rezavor mevalar bilan oziqlanadi. Sonyalar yashagan daraxt kovaklaridan 2 mingtacha o‘rik danaklari topilgan. Sonya anchagina hasharotlarni ham tutib eydi. Shu munosabat bilan uning bog‘larga etkazadigan zarari aftidan qishloq xo‘jalik o‘simliklari zararkunandalarini yo‘q qilishi bilan qoplanib ketadi.

Sonya yiliga bir marta bolalaydi, lekin urchish davri juda cho‘ziladi. Bolalari ko‘zi yumuq, junsiz va tamomila nimjon bo‘ladi. Bitta urg‘ochisi 2 tadan 7 tagacha, odatda o‘rta hisobda 3—4 ta bola tug‘adi.

2.5.2. Uzundumli qizil sug‘ur - *Marmota caudata* (Geoffroy, 1844)

Tanasi uzunligi 570 sm gachqa, dumi 220 sm gacha. Yungi uzun va dag'alroq. Yungi qo'ng'ir sarg'ishdan qizgishgacha o'zgaruvchan bo'ladi. Tanasining orqa va qorin tomonlari rangi bir xilda bo'lib, qora va qoramtir, qillari bor. Boshining o'rta va keying qismlari ustki tomondai qoramtir rangli bo'lib boshqa qismidan keskin farq qilmaydi. Lablar yaqinidagi vibrissalar va qanshari ochiq rangda. Ko'zlari osti chakkasinining yoqori qismi qoramtir tusda bo'ladi. Quloq suprasi mallarang. Dumining keying qismi qo'ng'ir yoki qoramtir qo'ng'ir tusda bo'ladi.

Tarqalishi. Tyonshon, Pomir, Hindiqush, Kashmir tog'lari ekosistemasining yoqori qismida tarqalgan. Uzbekistonda turning areali bir-biridan ajralib qolgan bo'lib, ikki hudud; G'arbiy Tyanshon (Ugam, Pskem, Chotqol tog'lari) va Pomir - Oloy (Hisor va Boysun tog'lari) da tarqalgan. Sug'ur tog'ning balandligi dengiz yuzasidan 1600 m bo'lgan archazorlardan boshlab eng yuqori mintaq 3500 -4000 m gacha bo'lgan hududlarida tarqalgan.



2.5.2- rasm. Qizil sug'ur - *Marmota caudata* (Geoffroy, 1844)

Yashash joyi. Turli xil rel'ef va ekspozitsiyaga ega bo'lgan tog' yonbag'irlari va tog'lar oralig'i vohalari. Ko'proq tog'ning baland al'p o'tloqlarida tarqalgan. G'arbiy Tyanshonda Qizil sug'urning areali Pskem va Talas tog'lari bilan

chegaralangan bo'lib, Chotqol daryosining o'ng qirg'ogida va Farg'ona vodiysida Chatqol tizmasining Janubi- Sharqiy yonbag'irlarida ham uchraydi. Arealining Pomir- Oloy qismi qizil sug'ur tarqalishining eng janubi -g'arbiy hisoblanadi. Bu hudud Hisor tog'larining barcha yonbag'irlari va ularga yondosh Boysun tog'larini o'z ichiga oladi.

Biologiyasi. Oila bo'lib yashaydi. Koloniya hosil qiladi. Oilasi bir juft voyaga etgan hamda o'tgan yilgi yosh individlardan iborat. Yilda bir marta 1-4 tadan, ko'pinchcha 3 tadan bolalaydi. Oila egallan hududda har xi tipdagi inlar (yashaydigan va himoyalnadigan - oziqlanadigan) bo'ladi. Sutkaning yorug' paytida faol. Sentabr oylarida uyquga ketib, mapt - aprelda o'yg'onadi. O'tlar bilan oziqlanadi. O'zaro tovush signallari orqali aloqa qiladi.

Qizil sug'urning umumiy soni 30-40 mingga yetadi. Ayrim hududlarda(Pskom daryosi vodiysi) keying yillarda o'tlaydigan hayvonlar sonining kamayishi bilan qizil sug'urlar sonining ortishi kuzatilmoqda. Bu tur yaqin o'tmishda sanoat miqyosida terisi uchun ovlangan. Hozir ularni ovlash taqiqlangan.

2.5.3. Oddiy ko'rsichqon - Ellobius talpinus Pall.(2.5.3-rasm)

Tog'oldi joylari va gil tuproqli sahrolarda tekis er yuzasi aksari xuddi cho'tir bo'lgandek o'tuproq do'ngchalari bilan qoplanib turadi. Ko'plar yanglishib, buni erkazarning ishi, deb o'ylashadi. Erqazir O'zbekistonda yo'q. Kichik-kichik do'ngchalar ko'rsichqon qilgan ishining natijasidir. U erni erqazarga o'xshab oyoqlari bilan kovlamasdan, balki tishlari bilan uzib olib tashlaydi. Kuz, qish va ayniqsa, erta bahorda yangi kovlab chiqarilgan tuproq do'ngchalarini ayniqsa ko'plab uchratish mumkin. Ochiq turgan yo'liga ohista yaqinlashib kelib, bir oz vaqt kutib turilsa, zo'r berib tashqariga tuproq otib chiqarayotgan kichkina hayvonni ko'rish mumkin bo'ladi. Ba'zida u tanasining yarmisini yoki hammasini indan tashqariga chiqarib, yumuq bo'lib ko'rinadigan kichik ko'zlarini katta ochib, tevarak-atrofga nazar solib qaraydi. Bu hayvon mayin qalin jun bilan qoplangan.

Orqa tomoni och qo'ng'ir-kul rang, sarg'ish-kulrang yoki jigarrang. Qopqoralari ham bo'ladi.

Tanasi uzunligi 9—11 sm, dumi uzunligi 7—14 mm. Oldingi tishlari (kurak tishlari) juda uzun, og'iz bo'shlig'idan oldinga ancha chiqib turishi bilan boshqa kemiruvchi hayvonlardan farq qiladi. Ko'rsichqonning quloq suprasi yo'q.

Ustyurtdan tortib, to Bobotog'gacha deyarlik butun O'zbekistonda yashaydi. Faqat ko'chma qumlarda bo'lmaydi. Tog'larga 3000 m balandlikkacha ko'tariladi. Gil tuproq sahrolar va chala sahrolar, bedazorlar, ochiq joylar va vohalar orasidagi dalalarning chetlarida, tog'lardagi alp o'tloqlarida, qumsahrosida esa taqirlarda va qum tepalari orasidagi tekisliklarda qumsichqon hammadan ko'ra ko'proq bo'ladi.

Er tagida hayot kechiradi. Er yuzasiga kamdan-kam chiqadi. Kunduzi deyarli inidan chiqmaydi. Tunda ba'zan biroz aylanib yuradi. Sentyabrdan to iyulgacha hammadan ko'ra aktiv bo'ladi. Yoz paytlari er yuzasiga deyarli tuproq otib



2.5.4-rasm. Oddiy ko'rsichqon (*Ellobius talpinus* Pall.)

chiqarmaydi. Er ostida uzun va murakkab yo‘llar kaziydi. Bu yo‘llar 10—30 sm chuqurlikda bir necha un metrgacha boradi. Ovqat tashiydigan yo‘llari xuddi daraxt shoxlari kabi radial yo‘lanishda har tomonga qarab ketgan bo‘ladi. Qaerlarga tuproq otib chiqarganiga qarab yo‘llarning yo‘lanishi to‘g‘risida bir qadar fikr yuritish mumkin.

Tuproqni tashqariga otib chiqarib bo‘lganidan keyin ko‘rsichqon yo‘lining og‘zini mahkam bekitib qo‘yadi. Ovqat tashiydigan yo‘ldan in kovlaydi, ini 5—8 m masofada bpr necha marta burilib borib, 1,5—2 m chuqurlikda diametri 35—45 sm keladigan uya kamerasi bilan tugallanadi. Uyasining bo‘shlig‘i quruq o‘t bilan to‘shalgan bo‘ladi. Uyasining yonida g‘amlab qo‘ygan ovqati turadigan omborxonasi va uchi berk bo‘ladigan qisqa yo‘llari — «xojatxonalari» joylashgandir. Bu hayvonlar bitta inda bir necha yil yashaydi.

Asosan o‘simliklarning sershira er osti qismlari: lola, qo‘ng‘irbosh piyozchalari, donli o‘simliklar, beda, qariqiz, qoqiut singari o‘simliklarning ildizpoyalari bilan oziqlanadi. Ba'zan kartoshka, sabzi, lavlagini, shuningdek beda, sebarga, kavrak va boshqa o‘tlarning barglarini kemirib ketadi.

Oddiy ko‘rsichqon g‘o‘za, eryong‘oqqa zarar etkazadi, ekinzor va ko‘chatzorlardagi o‘simliklarni shikastlab ketadi. Bu kemiruvchi hayvonning er qazib turishi bir qancha hollarda hatto foydali bo‘ladi. Chunki tuproqdagi azot va chirindi miqdorini oshiradi va tuproqning ishqorliligini kamaytiradi.

2.6. Yirtqichlar turkumi - Carnivora

2.6.1. Bo‘ri - Canis lupus L. (9-rasm)

Bo‘ri butun O‘zbekiston bo‘ylab Ustyurtdan tortib, to Bobotog‘gacha tarqalgan. Respublika territoriyasida yashaydigan bo‘rilar shimoliy rayonlardada hayot kechiradigan bo‘rilarga qapaganda ancha kichik bo‘ladi. Sibirda yashaydigan bir yarim metrli bo‘rilarning massasi 80 kg gacha boradi. Bizda uchraydiganlarining massasi 35—45 kg, tanasining uzunligi 110—120, dumining uzunligi 35—40 sm ga yaqin. Junining yozgi rangi zangsimon-sarg‘ish va kul rang

tusda. Junlarining uchi, ayniqsa arrapo'shtining ustidagisi qora bo'ladi. Qishki juni yozgisiga qaraganda bir qadar to'qroq kul rang tusda va qalinroq.

O'zbekistonda bo'rilar qumli va gil tuproqli sahrolarda, daryo bo'ylaridagi to'qaylarda, tog'oldi joylari va tog'larda yashaydi. Yozda esa bu hayvonlar bir qadar yuqoriroqda, alp o'tloqlarida yuradi. Butun yil bo'yi juft bo'lib yashaydi. Yakka bosh erkaklari ham uchrab turadi. Yakka yashovchi urg'ochilari esa deyarli uchramaydi. Har bir erkak va urg'ochi bo'ri, bolalari hali yosh paytida o'z oilasi uchun ma'lum bir joyni egallab oladi va uni boshqa bo'rilardan ko'riklab turadi. Har bir oilaning ini bir-biridan kamida 12—20 km narida joylashgan bo'ladi. Bo'rilar qosh qoraygan paytda va tunda ov qiladi. Ovqati yovvoyi hayvonlardir. Ustyurtda bo'rilar jayronlar bilan oziqlanadi, daryolarning odoqlarida to'ng'izlarni, Bobotog'da tog' qo'ylari arxarlarni tutib eydi. Tuyoqli yovvoyi hayvonlar kam bo'ladigan joyda bu ochkuz yirtkichlar ko'pincha uy hayvonlariga (qo'ylar, toylar, echki va eshaklarga) hujum qiladi. Ayni vaqtda qo'ylarni eya olganidan ko'ra ko'proq bo'g'izlab, g'ajib ketadi.

Bo'ri o'limtikdan ham hazar qilmaydi. Bu hayvon kemiruvchilar, tustovuqlar, o'rdaklar, yosh toshbaqalar, qo'ng'izlar, chigirtka va baliqni (asosan sayoz joylardagi sazanni) ham tutib eydi. Goho itlar va tulkilarga tashlanadi. Bo'ri o'simliklar mevasi (tarvuz, qovun, rezavor meva va olma) ni ham eydi.

Mart oyining oxiri — aprel oyining boshlarida kovak in yoki ochiq uylarida bolalaydi. Inlarini g'o'zi kovlaydi (bunday inlarning chuqurligi 1—1,5, uzunligi 7—8 m bo'ladi) yoki tulki va bo'rsiqlarning boshpanalarini kengaytirib oladi. Ochiq uylari saksovul ildizlari tagidagi chuqurchalar, tog'lardagi katta-katta toshlar ostida uchraydigan tokchalar yoki qalin qamishzor orasidagi tekis maydoncha ko'rinishida bo'ladi.

Yosh bo'rilar 3—4 tadan, qarilari 6—8 ta, hatto 13 tagacha ko'zi yumuq bola tug'adi. Yangi tug'ilgan bolalari orasida erkaklari ko'proq bo'ladi. Bo'ri bolalarining ko'zi 10—12 kunda ochiladi. Ular 35—40 kungacha onasini emadi, lekin bir oylik bo'lganidayoq onasi qaytarib chiqarib tashlagan, chala hazm bo'lgan go'sht bilan ham oziqlana boshlaydi. Dastlabki yigirma kun davomida

urg'ochi bo'ri bolalaridan nari ketmaydi. Erkagi unga ovqat etkazib turadi. Mana shu paytda erkagi inidan olisdagi biror joyda ov qilib yuradi. Bo'ri bolalari taxminan uch haftalik bo'lganidan keyin uysidan chiqa boshlaydi. Bu davrda bolalariga erkagi qaraedi. Bolalari ikki oylik bo'lganida ota-onalari ularga chalajon hayvonlarni olib kelib, ovga o'rgata boshlaydi. Bolalari vaqti bilan suvlagani chiqib turadi. Yozda uyasi yaqinida suv qurib qolsa bo'rilar bolalarini suvga yaqiniga ko'chiradi yoki suvga boshlab boradi.



2.6.1- rasm. Bo'ri (*Canis lupus* L.)

Iyunda yosh bo'rilar ovdan qaytib kelayotgan ota-onalarining uvilla-shiga javob bera boshlaydi. Mana shu paytda o'tgan yili tug'ilib, hali yaxshi ov qilolmaydigan bo'ri bolalari keyin tug'ilganlariga qo'shilib oladi va to yanvargacha birga yashab, gala hosil qiladi. Bo'ri galasi odatda bitta oiladan iborat bo'ladi. Bo'rilar hayotining ikkinchi yili oxirida, ba'zan uchinchi yilida voyaga etadi. Ular 15 yilcha umr ko'radi. Bitta bo'rining kafasda 16 yil yashab, keyin juda qarib o'lib ketganligi ma'lum.

Boʻrilar chorvachilik va ov xoʻjaligiga nihoyatda katta zarar etkazadi. Ularning orasida kuturish kasalligi koʻp uchrab turadi. Quturgan boʻrilar odamga tashlanadi. Sobiq Ittifoqda mana shu yirtqich hayvonlarga qarshi hamma joyda kurash olib borilgan. Oʻldirilgan har bir boʻri uchun ovchilarga mukofot berilar edi. Ularni samolyotlardan ham qirishgan.

2.6.2. Тулки - *Vulpes vulpes* L.(2.6.2-rasm)

Tulkini hamma yaxshi biladi. Tanasining uzunligi 65— 80, duminiki 40— 50 sm. Erkaklari 6—10, urgʻochilari 5—8 kg keladi. Tanasining ustki va ikki yon tomoni sargʻish malla tusda. Dumining pastki tomoni bilan uchi oq. Oʻzbekistonda tulki qum va gil tuproqli sahrolar, togʻoldi va togʻlarda yashaydi, koʻpincha qishloqlar yaqiniga va hatto katta shaharlar atrofiga joylashib oladi. Yozda tunda, qishda koʻpincha kunduzi ham aktiv boʻladi.

Hayvon ovqati bilan oziqlanadi va kumsichqonlar, qoʻ shoyoqlar, yumronkoziqlar, sichqonlar, qoʻngʻizlar hamda chigirtkalarni qiradi. Goho kakliklar, turgʻaylar va boshqa kushlarni tutib eydi. Baʼzida yosh jayronlarga hujum qiladi. Qishloqlar atrofida tovuklarni olib ketadi. Bundan tashqari oʻrik, olcha, jiyda, toʻkilgan olma va noklarni, pishgan uzum, pista va boshqalarni eydi.

Juftlashadigan vaqti — yanvarning oxiri. Mana shu paytda erkaklari urgʻochisini talashib, qattiq olishishadi. Folib chiqqani urgʻochisi bilan birga yashab qoladi. Urgʻochisi bolalaydigan inini va uning atrofidagi joyni juda koʻz-quloq boʻlib, qoʻriqlab turadi. Uni gʻamxoʻrlik bilan parvarish qilib, unga ovqat keltirib turadi va burgalarini teradi. Urgʻochisi baʼzan bir necha yilgacha bitta erkagining oʻzi bilan birga yashaydi. Inida mart oyida bolalaydi (odatda 4—6 bola tugʻadi), inining chuqurligi 2—2,5, yoʻllari uzunligi 5-6 m keladi. Bolalari junli va yaxshi rivojlangan boʻlib tugʻiladi. Lekin koʻzlari yumuq, quloq teshiklari bekik boʻladi. 17—19-kuni koʻzlari va quloq teshiklari ochiladi. Shu vaqtga kelib panjalaridagi yostikchalariga jun chiqadi.



2.6.2 - rasm. Тулки (*Vulpes vulpes* L.)

Ko‘zi ochilgan tulki bolalari tashqariga chiqib, oftobda anchagina o‘ynab yura boshlaydi. Ular qush kanotlarini, quyon oyoqlari, dumlari, quloqlari va in yaqinida yotgan boshqa g‘animat qoldiqlarini o‘yinchok qilib o‘ynaydi. Ota-onalari bolalariga yaralangan hayvonlarni keltirib beradi. Bolalari ularni tutib olib, o‘ldirishni o‘rganishadi. Yozning oxirida bolalari tarqalib ketadi. Yosh tulkilar mustaqil hayot kechira boshlaydi. 10—11 oylik bo‘lganida jinsiy voyaga etadi.

Tulki kemiruvchilar va hasharotlarni yo‘q qilib, qishloq xo‘jaligiga foyda keltiradi. Mo‘ynasi juda qadrlanadi. O‘zbekistonda mo‘yna tayyorlashda tulki terisi ondatradan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Tulki respublikamizda ov qilinadigan asosiy ob'ektlarning biridir.

2.6.3. Turkiston silovsini- *Lynx lynx* (L.,1758) ssp. *Isabellinus*,
Blyth, 1847 (2.6.3 - rasm)

Silovsin - yirtqichlar turkumining mushuksimonlar oilasiga kiradi. Evropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada tarqalgan. Tog‘ va tekisliklardagi odam bormaydigan qalin o‘rmonlarda yashaydigan o‘rmon yirtqichi. Gavdasining

uzunligi 1 —1,3 m, dumi 15—20 sm. Mo‘ynasining rangi yozda malla, juni qisqa bo‘ladi, qishda esa och kulrang tusda, juni uzun bo‘ladi. Qulog‘i katta, uchida bir tutam qora juni bor. Bu eshituv organining yaxshi taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Oyoqlari kuchli va panjalari katta. Odatda silovsin tunda hayot kechiradi, kunduz kunlari qoyalar orasiga, tulki va bo‘rsiqlar uyasiga yoki qalin changallar orasiga kirib yotadi. Silovsin ham boshqa mushuksimonlarga o‘xshash erda tez va chaqqon yuradi, daraxtda urmaydi, yaxshi sakraydi va kerak bo‘lsa, suvda ham suzadi. U tog‘ echki, elik, cho‘chqa bolalari, quyon, sug‘ur kabi sutemizuvchilar, qur, kaklik kabi qushlar bilan oziqlanadi. Ko‘p vaqt ovqatini pisib yotib tutadi.



2.6.3 - rasm. Turkiston silovsini- *Lynx lynx* (L.,1758) ssp.isabellinus

Silovsin mart va aprelning boshida urchiydi. Erklari urchish vaqtida urg‘ochi talashib bir-birlari bilan qattiq urishadi. Bo‘g‘ozlik davri 2—3 oy davom etsa kerak, ko‘p vaqt 2—3 ta, ba‘zan 4—5 ta bola tug‘adi, bolalari 2—3 oy emadi, keyin go‘sht bilan oziqlanishga o‘tadi. Erkak silovsinning bola tarbiya qilishda ishtirok etish etmasligi noma‘lum. Lekin o‘z uyasining atrofidan uzoqqa ketmaydi. Bolasi 12—14 oy ichida onasidan ajraladi. Silovsin ikki yoshida voyaga etadi. Urg‘ochisi ikki yilda bir marta tug‘sa kerak. Silovsin yirtqich, ov qilinadigan darrandalar, qushlar, qisman chorvachilikka zarar etkazadi.

Makomi. 2(VU:d): Silovsin Palearktika turining zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan turkiston Markaziy Osiyo kenja turi.

Tarqalishi. Turkiston, Hisor, Kuxitang, Bobotog' tog'i, O'zbekistondan tashqarida O' rta Osiyo mamlakatlari, Qozog'iston, Mug'uliston, Xitoy g'arbi, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning shimolida uchraydi. Shimoliy Evroosiyo qolgan qismlarida boshqa kenja turlari tarqalgan.

Yashash joylari. Tog'larning o' rta va yuqori qismlari (alp o' tloqlari zonasinnig bargli o' rmonlari va archazorlar qoplagan quyi chegarasigacha) ko' pincha sochma toshloq va qoyalarga yaqin joylarda.

Soni. Uzluksiz kamayib bormoqda. 1980-1990 yillari Hisor tog'ida – 50-66 ta, Kuxitangda t –10-12 tasi hisobga olingan. Ja'mi taxminan 100 donaga yaqin keladi.

Yashash tarzi. Asosan tunda, ba'zan kunduzi ham faol, boshqa paytlari chakalakzorlarning orasida bekinib yotadi. Juftlashishi yanvar- martda, may iyunda urg'ochisi qalin chakalakzor makonida bolalaydi (3-6). Bolalari 2-3 yilda jinsiy voyaga etadi. Ko' payish davridan so' ng ozuqa etishmasa ko' chadi. Quyvonlar, ba'zan kemiruvchilar, tuyoqlilar, qushlar bilan oziqlanadi. 17 yilgacha yashadi.

Cheklovchi omillar. O'rmonlarni kesilishi, oziq manbalarini kamayishi, brakonerlik.

Ko' paytirish. Dunyoning ko'plab hayvonot bog'larida boqiladi.

Muhofaza choralari. Ovlash taqiqlangan. Surxon Zomin, Hisor qo' riqxonalarida muhofaza ostiga olingan. SITESning I-ilovasiga kiritilgan.

2.6.4. Dasht mushugi, ya'ni sabancha *Felis lybica* Forst. (2.6.4-rasm)

Dast mushugi erkagi tanasi uzunligi 49-64, dumi 25-36 sm. Erkagi massasi 3,5-6 kg, urg'ochisi birmuncha kichikroq bo'ladi. Qishda junining umumiy rangi kul rang- sarg'ish bo'ladi. Yozda juni bir qadar tuproq rangga kiradi. Tomog'ining tagi, tomog'i, ko'kragi va qornining bir qismida zaxil tus aralash oq - qora xoli bor. Peshonasi va boshining tepasida ham bir talay qo'ng'ir xollari bo'ladi. Ensasida uzunasiga ketgan to'rtta qora yo'li bor. Orqasida bir talay qora-qo'ng'ir

xollari ham bo‘ladi. Dumida ko‘ndalangiga tushgan 6—8 ta qora halqasi bor. Dumining uchi qora.



2.6.4- rasm. Dasht mushugi, ya'ni sabancha (*Felis lybica* Forst.)

O‘zbekistonda bu mushuk Qizilkum, Mirzachul va Sirdaryoda, g janubdagi tog‘oldi tekisliklari va tog‘ oldilarida tarqalgan. Daryo vodiylaridagi gil tuproqli keng tekisliklarda yashaydi. Sahrolarda va suv xavzalari yonidagi qamishzorlarda uchraydi. Tepa bo‘lib yotadigan qumlarda va keng qum sahrolarida kamdan-kam uchraydi. Tog‘oldi joylarida ham suvga yaqinroq, daryolarning sohillarida bo‘ladi. Dasht o‘ simliklari bilan qoplangan yon bag‘irlarda va koyalarda juda kam uchraydi. Pastak o‘ simliklar o‘ sadigan ochiq joylarga bu mushuklar yaqin yo‘la-maydi. Suvdan qo‘rqmaydi va yozda hamisha suvga yaqin yuradi. Yaxshi suzadi. Yil bo‘yi inlarda, ko‘pincha bo‘rsiq inlarida yashaydi. Bu yirtqich hayvon qosh qoraygan payt va tunda hayot kechiradi. Yoz kezlari ba'zan kunduzi uchrab

qoladi. Qalin changalzorlarda ov qilayotgan paytida hamisha yovvoyi cho‘chka, quyon va tustovuqlar o‘tadigan so‘qmoqlardan foydalanadi.

Dasht mushugi asosan quyon Simonlar va kemiruvchilar: qum sichqonlar, qo'shoyoqlar, sichqonlar, quyonlar, dala sichqonlar bilan oziqlanadi. Ba'zi rayonlarda uning em bo'ladigan asosiy ob'ekti endilikda ondatra bo'ladi. Bu yirtkich hayvonning changaliga ko'pincha qushlar, tustovuklar, o'rdaklar va boshqa yirikrok parrandalar tushib qoladi. Sabancha goho kaltakesaqlar, qo'ng'izlar va hatto jiya mevalarini ham eydi.

Aprelda inlarida yosh bolalari paydo bo'ladi (bitta urg'ochisi 3 ta dan 5 tagacha bola tug'adi. Bolalari avgustning o'rtalaridan boshlab mustaqil hayot kechira boshlaydi.

2.6.5. Tog' qoploni (Ilvirs) –Uncia uncia, Schreber,1775 (2.6.5-rasm)

Baland tog'larda mushukning yirik bir xili— ilvirs yashaydi. Tanasining uzunligi 130sm, dumi- 90 sm. Erkaklarining massasi 75 kg gacha boradi, urg'ochilariniki asa bundan sal kamroq bo'ladi. Juni quyuq, baroq, yumshoq, kul rang-qo'ng'irnamo tusda. Tanasining boshidan oyog'i qora yoki qora-qo'ng'ir tusda bo'ladigan halqasimon xollar bilan qoplangan.

O'zbekistonda Tyanshan va Hisor tizmalari bo'ylab tarqalgan. Bu hayvon ko'pincha baland tog'larda kichikroq yalang vodiylar va yonbag'irlar qo'lab tushgan toshlar va qoyalar bilan navbatlashib boradigan joylarda yashaydi. Goho-goho archazorlarda uchrab qoladi. Qor qalin tushgan paytlarda birmuncha pastroq yaylovlarga tushbb, odamning turar joylariga yaqin keladi. Asosan kech kirib, qosh qorayganda, goho kunduzi ov qiladi. O'ljasiga toshlarning orqasidan pisib borib, keyin 6 m va bundan ham uzoqroqdan sakrab tashlanadi. O'ljasini quvlab, ba'zan bir necha marta sakraydi, lekin o'z o'ljasi orkasidan uzoq quvlab bormaydi. Ilvris ko'pincha o'ljasiga pisib yotgan joyidan, yuqoridan tashlanadi.

Ko'pincha tog' echkilarini ovlaydi. Goho arxar, elik, yosh to'ng'izlarni tutib oladi. Qishda uy hayvonlariga hujum qiladi. O'rni kelib qolsa, chamasi, sug'urlar va birmuncha maydaroq kemiruvchilarni ham tutib eydi.

Ilvirslar biror joydagi chuqur daraga, qoya toshlar orasidagi yoriq yoki tor tirqishlariga in qurib, bir necha yil egallab oladi. Urg'ochilari mart oxiri-aprelda

ikkita, juda kamdan-kam hollarda beshtagacha bola tug'adi. Bolalari iyul boshlaridayoq onasiga ergashib yuradi. Ular kuzda ham bir-biridan ajralmaydi. Yosh ilvrislar ba'zan qish bo'yi onasi bilan birga yuradi.

Ilvirs odamga nihoyatda kamdan-kam hujum qiladi. Ilvrisdan chorvachilikka etadigan zarar juda arziyas, u tuyoqli hayvonlarni qirib, ovchilik xo'jaligiga birmuncha ko'proq zarar etkazadi.

Maqomi 1(CR): Markaziy Osiyonnig butunlay yoq bo'lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan G'arbiy kenja turi. TXMI qizil ro'yxatiga kiritilgan. [EN].

Tarqalishi. G'arbiy Tyonshonning G'arbiy Pomir- Oloy, O'zbekitsondan tashqarida Tojikitson, qirg'iziston, Qozog'iston, G'arbiy Sibir Janubiy Mug'uliston, Xitoy (Sinjon), Avg'onitson, Nepal.



2.6.5-rasm. Tog' qoploni (Ilvirs) –Uncia uncia, Schreber,1775

Yashash joylari. Tog'larning O'rta va yuqori (dengiz sathidan balandligi 2500-4500) qismi bo'lgan qoya toshli – sochma qiyaliklarini afzal ko'radi.

Soni. Doimi kam bo'lgan. Sunggi un yillar davomida soni uzluksiz kamaymoqda. 1980-1990 yillarda Hisor qo'uriqxonasida 5011, 1970-1980 yillarda Chotkolda 1-3 ta bo'lgan. Hozir jami 20-30 tani tashkil qiladi.

Yashash tarzai. Oqshomlari faol, kunduzi g'orlar, qoyalar orasiga bekinib yotadi. 2 yilda bir marta bolalaydi. Juftlashish davri fevral – mart. Iyulda bolalaydi (1-5) bolalari 1-5 yoshgacha onasidan ajralmaydi. 2-3 yilda voyaga

etadi. Yovvoyi tuyoqlilar, ba'zan kemiruvchilar bilan oziqlanadi. Tog'da yovvoyi tuyoqlilar ortidan yuqoriga va patsga ko'chib yuradi. 21 yil umr ko'radi.

Cheklovchi omillar. Baland tog' yaylovlarining O'zlashtirilishi, oziqa manbalarining kamayishi. Brakon'erlik.

Ko'paytirish. Dunyoning hayvonot bog'larida ko'paytiriladi.

Muhofaza choralari. Ovlash taqiqlangan. Hisor, Zomin, Chotqol qo'riqxonalarida muhofaza ostiga olingan. SITESning I-ilovasiga kiritilgan.

2.6.5. Bo'rsiq - *Meles meles* L. – (13-rasm)

Toshkent atroflaridagi Qoraqamish va Bo'zsuv jarlarida bo'rsiqning inlari va yo'llarini ko'p ko'rish mumkin edi. Ahyon-ahyonda erta saharlab boshpanasiga bekinib olish uchun shoshilib ketayotgan bu hayvonning o'zini uchratsa bo'lardi.



2.6.5- rasm. Bo'rsiq - *Meles meles* L.

Tanasining uzunligi 70—78, dumining uzunligi 18—25 sm. Tanasi va dumining ustki tomoni kulrang yoki qo'ng'ir-kul rang tusda, taram-taram och rangli yo'llari bor. Tumshug'idan ensasi tomon oq yoki sarg'ish-oq yo'l o'tgan. Lunjlari ham shu rangda. Burnidan quloqlariga tomon qora yo'llar o'tib boradi. Tanasining pastki qismi qora-qo'ng'ir. Bahorda erkaklarining massasi 7—8 kg keladi. Kuzga kelib uyquga kirish oldidan semirib olgan qari erkaklarining massasi 20 kg ga boradi. Urg'ochilari kichikrok bo'ladi.

Ovqati chigirtka, qo'ng'izlar va ularning lichinkalaridan iborat. Hasharotlarni faqat er yuzasidan emasdan, erdan kavlab olib ham eydi. Bazan kemiruvchilar va kaltakesaqlarni tutib eydi. Tog' o'rmonlarida to'kilgan tog'olcha, o'rik, olma, jiyda va tutni ham eydi. Yovvoyi o'simliklar ildizpoyalari, piyozchalarin va mevalarini g'ajiydi.

Fevral oxiri yoki mart boshida bolalaydi. Urg'ochi bo'rsiq 2—6 ta, o'rta hisobda 4 ta bola tug'adi. Bolalarining ko'zi 33—38 kun deganda ochiladi. Iyunda bolalari uyasidan chiqa boshlaydi. Ular to kuz tushgunicha onasi bilan birga yashaydi.

Bo'rsiqlar davo bo'ladigan dori uchun ovlanadi. Terisi ko'pincha kun ishlashga ketadi. Bo'rsiqlar qopqon va kechalari itlar bilan tutiladi, shuningdek, kavlab inidan chiqarib olinadi.

2.6.6. Olaqo'zan - Vormela peregusna Gold. (15-rasm)

O'zbekistonning dasht, sahro va cho'llarida kichkinagina hayvon - olaqo'zan uchraydi. Uning tanasi uzunligi 31—35, dumi 16—20 sm. Dumi baroq, quloqlari oq bo'lib, tanasi ola-

bula rangda bo'ladi. Orqasi sariq, malla va qo'ng'ir tusli, noto'g'ri shakldagi mayda xollari



2.6.6 - rasm. Olaqo'zan (Vormela peregusna Gold.)

bor. Qorni tomog'idan to dumi asosi va oyoqlarigacha qora- qo'ng'ir tusda, dumining o'rtasi oqish, uchi qora-qo'ng'ir rangli. Olaqo'zan dashtlarda katta qumsichqon va yumronkoziq inida yashaydi. Sug'oriladigan erlarda asosan dalalar chetida uchraydi. Ba'zan in kovlaydi.

Asosan erta sahar va oqshom kezlari ov qiladi. Biror narsadan cho'chisa yoki bezovtalansa, dumini orqasiga chiqarib olib, quloqlarini dikqaytiradi va boshini ko'tarib, tishlarini tirjaytiradida, itning irillashiga o'xshash tovush chiqaradi. Mayda kemiruvchilar bilan oziqlanadi, ba'zida quyon bolalari va mayda qushlarni tutib eydi. Fevral oxiri yoki mart boshlarida bolalaydi. Har safar 4—8 tadan bola tug'adi. Yangi tug'ilgan bolalarining ko'zi aprel oxirig a borib ochiladi. Iyunda ham bolalari onasi bilan birga yuradi.

Olaqo'zanning terisi unchalik qimmat turmaydi. Darvoqe, ba'zi Sharq mamlakatlari, masalan, Eron va Afg'onistonda muynasi och rangda bo'lganligi uchun qadrlanadi. Olaqo'zan talaygina mayda kemiruvchilarni yo'q qilib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi.

2.6.7. O'rta Osiyo qunduzi, daryo qunduzi (Lutra In
fra (L., 1758) seistanica Biiila, 1912 (2.6.7-rasm)

Zarafshon va Surxondaryo havzalarida ba'zan qunduz uchrab qoladi. Uning muynasi juda qimmat turadi. Tanasining uzunligi 63—70, dumining uzunligi 41—45 sm. Erkaklari 6—8, urg'ochilari 5 kg atrofida keladi. Barmoqlari suzgich parda bilan o'zaro qo'shilgan. Orqasi, ikki yon tomoni va dumi yaltiroq, och qo'ng'ir tusda. Boshi orqasiga qaraganda ochroq rangda bo'ladi. Tanasi pastki tomoni yon tomonlariga nisbatan ochroq. Junining tagidagi momiq tuklari oqish rangda bo'lib, uchi tuq ko'ng'ir. Yozda juni qishdagidan ko'ra sal to'qroq va kaltaroq bo'ladi.

Qunduz juda yaxshi suzadi va sho'ng'iydi. Suv ostida 100 m gacha suzib borishi va 2—3 minut suv tagida turishi mumkin. Tunda yashirin hayot kechiradi. Baliqlar bilan oziqlanadi. Baqalar, mollyuskalar, suv hasharotlar, suvi qushlari va ularning tuxumlarini, mayda hasharotlar va ba'zi o'simliklarni ham eydi. Tutib olgan o'ljasini sudrab, qirg'oqqa olib chiqadi va o'sha erda eydi.

Qunduz daryo va ko'llarning buylarida yashaydi. Tik qirg'oqlardan in kovlab oladi. Iniga kirish yo'li suv tagida bo'ladi. Uya kamerasi suv sathidan



2.6.7 -rasm. O'rta Osiyo qunduzi (*Lutra lutra* (L., 1758)

seistanica Biiila, 1912

balandda joylashadi. Goho inini toshlar orasiga quradi. Bu hayvon odatda suv havzasidan 150— 200 m dan uzoq, ketmaydi.

Rossiyaning Evropa qismida aprel-mayda bolalaydi (2—4, goho 5 ta tug'adi). Bolalari tug'ilganida ko'zi yumuq bo'ladi. 9—10 kun deganda ko'zi ochiladi. Sakkiz oyligida bolalari onasiga ergashib ovga chiqa boshlaydi. O'zbekistonda qunduzni ovlash taqiqlangan.

Qunduz mo'ynasidan bosh kiyim tikiladi. Odatda qunduz mo'ynasidan dag'al qillar yulib olib tashlanadi. Mayin momiq junlar qoldiradi. Shunday mo'ynadan yoqa va telpak tikiladi.

2.6.8. Qo'ng'ir ayiq –*Ursus arctos* Linneus, 1758 ssp. *isabellinus*

Horsfield, 1826 (2.6.8-rasm)

O'zbekiston tog'larida qo'ung'ir ayiq uchrab turadi. O'rta Osiyo ayiqlari junining birmuncha uzun va siyrak, ochroq tusdaligi hamda panjalarining oq bo'lishi bilan shimoliy rayonlarida yashaydigan ayiqlardan farq qiladi. Shuning uchun bizdagi ayiqlar kenja turi oq tirnoq ayiqlar deb ataladi.

O'zbekistonda Tyanshan va Turkiston tog'lari, Zarafshon tizmalari, Boysuntog'da hayot kechiradi. Baland tog'larda, alp mintaqasida yashaydi, ignabargli va bargli o'rmonlarga birmuncha kamroq tushadi. Ugam va Pckom tizmalarida bahor kezlari va yoz boshida alp o'tloqlarida yursa, yozning oxirida bargli o'rmonlarda mevali butalar qalin bo'lib o'sadigan va yong'oq, yovvoyi olma, olcha hamda zirk daraxtzorlarida yashaydi. Chotqol tizmalarida yoz o'rtalarida alp o'tlari o'sib yotadigan va qoya toshli juda' tik yonbag'irlarda yuradi.

Oktyabr oxiri-noyabr boshlarida uyquga kiradi. Inini ko'pincha toshlar orasidagi kamgaklarga, goho qalin buta changalzorlar yoki yosh daraxtzorlarga, qulagan daraxtlar tagiga va orasiga, g'orlarga hamisha shamolga teskari qilib quradi va tagiga ko'pincha o't-o'lan tashlab qo'yadi. Ayiq to'la uyquga kirmaydi. Kuzda ko'pincha ertalab o'yg'oq bo'ladi. Keyinchalik, ayniqsa havo

isigan paytlarda juda ziyrak uxlaydi. Odamlar yaqinlapshshi bilan darrov ziyraklanadi, ba'zan esa tashqariga ham chiqadi.



2.6.8-rasm. Qo'ng'ir ayiq –*Ursus arctos* Linneus, 1758 ssp. *isabellinus*
Horsfield, 1826

Erta bahorda ayiqlar, g'alla va ikki pallali o'simliklar ildiz poyalari, piyozchalari, ko'k nihollari bilan oziqlanadi, goho qo'ng'izlar va sug'urlarni tutib eydi. Yoz oxirida rezavor mevalar, tog'olcha, olma, do'lane va yong'oq bilan oziqlanadi. Bizda uchraydigan ayiq juda kamdan-kam hollarda qo'ylar va yovvoyi tuyoqlarlarga hujum qiladi.

Tyanshanda yanvar oxirida bolalaydi (1—3 ta, bazan 4-5 bola tuqadi). Bu paytda urg'ochi ayiqlar hali uyasida yotgan bo'ladi. Yangi tuq'ilgan bolalari siyrak jun bilan qoplangan. Ular deyarli yalang'ochdek bo'lib ko'rinadi va massasi atigi 500 g keladi. Ko'zlari yumuq, quloq teshiklari teri bilan bekilgan. Bolalarining ko'zi 13 kunda ochiladi. Yoz buyi onasi bilan birga yurishadi va birga inga kirib yoki yaqin atrofda yotadi. Kuzga kelib ayiq bolalari massasi 25 kg dan 40 kg ga etadi. Ayiq bolalari bilan birga odatda 2 yoshga borib qolgan erkak ayiq ham birga

yuradi. Ayiq bolalari hayotining uchinchi, goho to'rtinchi yili jinsiy voyaga etadi. Ayiqlar odatda 30 yilcha umr ko'radi. Hayvonot bog'larida ularning 34 yilgacha yashagani ma'lum.

Maqom:i 2 (VU:R): Goloarktika turining zaif tabiatan kamyob, mozaik tarqalgan. Turkitson –Markaziy Osiyo kenja urug'i.

Tarqalishi. G'arbiy Tyonshon, G'arbiy Pomir – Oloy, O'zbekistondan tashqarida: O'rta Osiyo mamlakatlari, Qozog'iston, Avgoniston, Pokiston va hindistonning shimoli, Xitoy (Sinjon), Nepal, Shimoliy Evroosiyo va Shimoliy Ameraikada – boshqa kenja turlari.

Yashash joylari. Tog'larning dengiz sathidan balandligi 1500-3500 m bo'lgan o'rta va yuqori qismlari.

Soni. 1970-1980 yy- 200-220 tasi hisobga olingan. Muhofaza choralari tufayli soni bar'arorlashgan. (G'arbiy Tyonshonda-100 tacha, G'arbiy Pomir-Oloyda – taxminan 500 ga yaqin). O'rtacha zichligi har 10 kilometr kvadrat maydonga 13 ta to'g'ri keladi. Ko'plari Hisor, Chotkol, Zomin qo'riqxonalarida yashaydi.

Yashash tarzi. Mart – oktyabrda ko'pincha ertalab va kechki paytlari faol, boshqa paytlari uyalariga bekinadi va shu yerda qiishlaydi. May-iyunda juftlashadai. Ikki yilda bir marta yanvar - fevralda bolalaydi. Bolalari mart- aprelda uyalaridan qisqaadi. 3-4 yoshda jinsiy voyaga etadi. Mevalar, ildizlar, ba'zan sut emizuvchilar, hasharotlar, O'laksalar bilan oziqlanadi.30 yilgacha yashaydi.

Cheklovchi omillar. Brakon'erlik.

Ko'paytirilishi. Dunyoning ko'plab hayvonot bog'larida ko'paytiriladi. Muhofaza choralari. Ovlash taqiqlangan. Tog' qo'riqxonalar va miliy bog'larida muhofaza otsiga olingan. SITESning I-ilovasiga kiritilgan.

2.7. Juft tuyoqlilar turkumi – Artiodactyla

2.7.1. Yovvoyi cho‘chqa yoki to‘ng‘iz - Sus scrofa L.(2.7.1-rasm)

Yovvoyi cho‘chqa boshi besunaqkay katta va oziq tishlari yirik, oyoqlari ancha uzun va tanasining oldingi qismi kuchli rivojlangan bo‘lishi bilan xonaki cho‘chqadan farq qiladi. Tanasining uzunligi 180 sm gacha, balandligi yag‘rinidan o‘lchaganda 100—105 sm. Erkaklari 220—240, urg‘ochilari 100—120 kg keladi. Tanasi dag‘al qil, qishda mayin tuk bilan qoplangan bo‘ladi. Rangi har xil: och qo‘ng‘ir rangdan to‘q, deyarli qora ranggacha boradi. O‘zbekistonda tog‘ tizmalari, shuningdek, Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Surxondaryo bo‘ylaridagi to‘qaylarda yashaydi. Bundan 40—50 yil ilgari Chirchiq va Ohangaron bo‘ylarida ham odatda uchrab turar edi. Endi bu erlarda qirilib bitgan. Yovvoyi cho‘chqa ko‘chib, uzoqlarga boradi.

Ko‘payish davrida tog‘oldi joylari, vohalar va hatto Qizilqumning markaziy rayonlariga ham kelib qoladi. Bu erlarda to‘ng‘iz chashmalari bo‘lgan kichikrok sahro tog‘lari yoki qumlar orasida ba‘zan necha oylab yashaydi.

Yovvoyi cho‘chqaning eng yaxshi ko‘radigan joylari suv havzalari bo‘ylaridagi to‘qaylar va qamishzorlar, shuningdek, tog‘ o‘rmonlari va subalp o‘tloqlaridir. Tog‘larda yoz boshida archazorlarda va subalp o‘tloqlarida yuradi. Mevalar pishganidan keyin bargli o‘rmon mintaqasiga tushib keladi. Yovvoyi cho‘chkalar oila yoki poda bo‘lib yuradi. Bunday podalarda odatda urg‘ochilari, bolalari va bir yoshgacha bo‘lgan yosh cho‘chqalar uchraydi. Qari erkaklari yakka yashaydi. Ular urchish vaqtida podaga qo‘shiladi. Yozda bu hayvonlar odatda qosh qorayganida va tunda o‘tlaydi. Pastqam joylarda ba‘zan kunduzi ham o‘tlab yuradi. Kunduzi odatda ko‘llar va daryolarning qirg‘oqlaridagi loyga ahanab, dam olib yotadi. Qishda asosan kunduz kuni aktiv hayot kechiradi.

Ozig‘i xilma-xil bo‘lib, yashash joyi va yil fasliga bog‘liq. Daryolar odoqlarida cho‘chqalar qamish va qo‘g‘a ildizpoyalari va yosh nixollarini, to‘qaylarda jiyda mevalarini eydi. Bug‘doy, sholi, tarvuz, qovun, kartoshka, loviya

pishgan kezlarida dalalar, polizlar va ekinzorlarni payxon qiladi. Chigirtka juda ko‘payib ketgan yillarda ular bilan ham oziqlanadi. Uchrab qolsa, baliq va o‘limtikni ham yeydi. Tog‘larda bahor kezlari va yoz boshida ko‘proq o‘simliklar ildizpoysi, barglari va poyalarini eydi. Pishiqchilik davrida tut, o‘rik, olma, tog‘olcha, yong‘oq va pista mevalarini terib eydi. Qizilqumda soyabon gullilar: ferula, kraxmalga boy qo‘zoqdoshlar va zaharli kuchalali o‘simliklar ildizini kovlab eydi. Kuchala egan cho‘chqalarning ichagini ovchi itlar eganida, zaharlanib halok bo‘ladi.



2.7.1- rasm. Yovvoyi cho‘chqa, yani to‘ng‘iz (*Sus scrofa* L.)

Cho'chqalar mart-aprel oylarida 3—4 bola tug‘adi. Ular to‘qay va qamishzorlar yoki soylar bo‘yidagi changalzorlarga in qurib, ini ustiga o‘simliklar barg va poyalaridan to‘shama soladi va shu yerda bolalaydi. Urg‘ochisi tug‘ilgan bolalarini inidan nariga olib ketadi. Dastlabki ikki-uch hafta davomida bolalari sut emadi; keyinroq o‘simlik barglari va novdalari bilan oziqlanadi. Sut emishi 2,5—3 oy davom etadi. Cho‘chqa bolalari tez o‘sadi. Kuzga kelib 20 kg gacha etadi.

Yovvoyi cho‘chqa - qimmatli ov hayvoni. U go‘sh, yog‘, teri va qil beradi. Uni maxsus ruhsatnoma bo‘yicha ovlash mumkin.

2.7.2. Sibir tog' echkisi - *Capra sibirica* Pall. (2.7.2-rasm)

Tog' echkisi Turkiston va Chotqol tog' tizmalarida uchraydi. Erkagining orqaga qayrilgan, 135 sm gacha bo'lgan uzun qilichsimon shoxlari rivojlangan.

Erkagining massasi 120 kg gacha keladi. Urg'ochilari sal kichikroq bo'ladi. Ularning shoxi ham uchi sal qayrilgan bo'lib, kaltaroq. Yozgi juni qo'ng'irnamo-jigar rang, ikki yon tomoni sal oqishroq. Ba'zilarining qorni oqish bo'ladi. Rangi yoshi ulg'aygan sayin o'zgarib boradi va qari erkaklarida to'q qo'ngir bo'lib qoladi. Orqasida bilinar-bilinmas qora dog'i bor.

Tog' echkisi tik qoya toshlar va o'pirilmalar ko'p bo'ladigan juda past-baland joylarda yuradi. Ko'pincha alp mintaqasida yashaydi. Qish oylarida bu echkklar tog'larning biroz pastki qismlariga ko'chib, yon bag'irlarga yoki shamol qorni uchirib ketadigan joylarga tushib keladi.



2.7.2-rasm. Sibir tog' echkisi - *Capra sibirica* Pall.

Ertalabki va kechki soatlarda o'tlaydi. Tunda borish qiyin bo'lgaya daralardagi qoyalar orasida dam olib yotadi. Erta saharda bu hayvonlar soat 10—11 gacha o'tlaydi, keyin suvlagani boradi. Katta-katta toshlar soyasida yoki qoyalar tagida

dam olib, tunaydigan joylariga tomon asta-sekin yurib keladi. Yozda ular qo'ng'irbosh va boshqa o'tlar bilan oziqlanadi. Qishda archa ignabarglari va butalarni g'ajiydi.

Voyaga etgan erkaklari noyabr oyining o'rtalarida olishib, bir nechta (ba'zan 10—15 ta) urg'ochisini o'ziga oladi va bopqa erkaklarini ularning yaqiniga yo'latmaydi. Urg'ochilari aprel-may oyarida bolalaydiro Odatda ikkita, goho bitta yoki uchta bola tug'adi). Bolalari ikki yoshli bo'lganidan keyin voyaga etadi.

XULOSALAR

1. Hisor davlat qo'riqxonasida Yer yuzida tarqalgan umurtqali hayvonlar, jumladan, baliqlarning 2 turi, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 17 turi, qushlarning 116 turi, sut emizuvchilarning 31 turi tarqalgan

2. Qo'riqxonada tarqalgan 31 turga mansub sutemizuvchilardan qarayib yarmisi (14 tur) o'ta noyob va soni keskin kamayib borayotgan turlar hisoblanadi. Ulardan 7 turi, xususan ko'rshapalaklarning 2 turi, sibir tog' echkisi, tyonshon qo'ng'ir ayig'i, o'rta osiyo qunduzi, turkiston silovsini, qor qoploni yo'qolib borayotgan tur sifatida O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.

3. Qo'riqxonada yashaydigan sutemizuvchilarni 6 turkum (Hasharotxo'rlar, Qo'lqanotlilar, Tovushqonsimonlar, Kemiruvchilar, Yirtqichlar, Juft tuyoqlilar) va 13 oilaga ajratish mumkin. Ular orasida yirtqichlar ko'pchilikni tashkil etqadi.

4. Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasidagi qo'ruqlanadigan hududlar orasida turlari va tabiiy – geografik landshaftining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Kelguvsida bu hududdan ekologik turizmni tashkil etish maqsadlarida foydalanish mumkin.

5. Hisor qo'riqxonasida tarqalgan hayvonlarning biologik xilma-xilligini saqlab qolish va ularni muhofaza qilish uchun brakonerlikka qarshi doimiy kurash olib borish, hayvonlarning yashash joylarini buzmaslik, noyob hayvonlarni sun'iy ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2005. -176 b.
2. Abdullaev M., Rasulov M., Fayozova S. Umurtqali hayvonlar zoologiyasidan dala praktikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari tabiiyot-geografiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi». 1987, 80 b.
3. Adolf T.A., Butev V.T., Mixeev A.V., Orlov V.I. Rukovodstvo k laboratorno'm zanyatiyam po zoologii pozvonochno`x. Uchebnoe posobie dlya studentov biologicheskix spetsialnostey pedagogicheskix institutov. M.: «4. Azimov D., Lanovenko E., Filatov A., Mirabdullaev I. Soxranenie biologicheskogo raznoobraziya: problemo` i sujdeniya. J. Ekologicheskij vetsnik. 2003, №1, 5-14 sr.
4. Biologicheskij ensklopedicheskiy slovar. Moskva, Sovetskaya ensklopediya. 1986. -832 s.
5. Bobrinskiy NA. va boshqalar. Zoologiya kursi, P-tom. Xordalilar. T.: "O'qituvchi", 1966, 486 b.
6. Bogdanov O. P. O'zbekiston hayvonlari (umurtqalilar). Toshkent "O'qituvchi", 1983, 1-320 b.
7. Bogdanov O. P. Redkie jivotno`e Uzbekitsana. Entsiklopedicheskiy spravochnik. T. 1993. "Glavnaya redaktsiya ensiklopediya" 1-398 str.
8. Bolalar ensiklopediyasi. Toshkent, " O'zbekiston ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti , 2000. -634 b.
9. Bolshoy atlas jivotno`x. Perevod s italyanskogo. Moskva, Atsrel ATs. 2004. -251 s.
10. Brem Alfred. Jizn jivotnix. Ptitsi.Tom-1, izd. ATs Moskva,2001.-684 s
11. Dadaev S.,Saparov Q. Zoologiya. T.,“Moliya” nashriyoti. 2010. -480 b.
12. Zoxidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi (Sutemizuvchilar). Fanlar akademiyasi hashriyoti, T., 1960, 224 b.

13. Kollektiv. Jizn jivotno`x . V 6- tomax. Tom 5. Ptitso`. Moskva, izd. "Prosvehenie", 1970. 612 s.
14. Kollektiv. Bolshaya entsiklopediya jivotnogo mira. Moskva, izd. Roslin: 2007. 613 s.
15. Konstantinov V.M, Naumov S.P., Shatalova SP. Zoologiya pozvonochno`x: Uchebnik dlya visshix ped. ucheb. zavedeniy.-M.: «Akademiya», 2007. -464 s.
16. Kuznetsov. B. A, Chernov. A 3., Katonova. L. N. Kurs zoologii. Uchebnik dlya studentov vo`sshix uchebno`x zavedeniy po spetsialnosti "Zashita rasteniy", M.: "Agropromizdat", 1989.- 399 s.
17. Laxanov J.L. O`zbekistonning umurtqali hayvonlari aniqlagichi. T.: «O`qituvchi», 1988. - 224 b.
19. Mavlonov O. Zoologiya. Umumiy o`rta ta'lim maktablari uchun darslik . Toshkent, " O`zbekiston entsiklopediyasi", 2013. -237 b.
20. Mavlonov O. Zoologiya. Akademik litsey o`quvchilari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent, " O`zbekiston entsiklopediyasi", 2010. - 320 b.
23. Naumov. S. P. Zoologiya pozvonochno`x. Uchebnik dlya studentov pedagogicheskix institutov. M., «Prosvehenie», 1982, 464 s.
24. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. Toshkent, "oqituvchi", 1995, -310 b.
29. Shernazarov E.S. va boshqalar. O`zbekistonning umurtqali hayvonlari. Ma'lumotnoma. T.: 2007. -274 b.
30. Soxranenie biologicheskogo raznoobraziya. Natsionalnaya srategiya. Tashkent. -136 s.
31. Xadoron E., Vener P. Obshaya zoologiya. M.; "Mir", 1989. -523 s.
32. O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-jild, Hayvonot olami. T. -2009.
33. O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 9-tom, Hisor davlat qo`riqxonasi. Toshkent, "O`zbekiston entsiklopediyasi", 2007. -781 bet.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tabiyot fanlari fakulteti 402-guruh talabasi Najimova Inobatning "Hisor davlat qo'riqxonasi sutemizuvchi hayvonlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

ANNOTATSIYA

Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasidagi qo'ruqlanadigan hududlar orasida turlari va tabiiy – geografik landshaftining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Qo'riqxonada baliqlarning 2 turi, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 17 turi, qushlarning 116 turi, sut emizuvchilarning 31 turi tarqalgan. Sutemizuvchilardan qarayib yarmisi (14 tur) o'ta noyob va soni keskin kamayib borayotgan turlar hisoblanadi. Ulardan 7 turi, O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan..

Qo'riqxonada tarqalgan hayvonlarning biologik xilma-xilligini saqlab qolish va ularni muhofaza qilish uchun brakonerlikka qarshi doimiy kurash olib borish, hayvonlarning yashash joylarini buzmaslik, noyob hayvonlarni sun'iy ko'paytirish tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Kelguvsida bu hududdan ekologik turizmni tashkil etish maqsadlarida foydalanish mumkin.

АННОТАЦИЯ

на выпускной квалификационной работе студента 402 группы
факультета естественных наук Ташкентского государственного университета
им. Низами на тему "Млекопитающие Гиссарского государственного
заповедника"

Среди охраняемых территорий Узбекистана Гиссарский государственный заповедник выделяется своим разнообразием видов и географических ландшафтов. В заповеднике обитают 31 вид млекопитающих. Почти половина которых считаются очень редкими, 7 видов из них включены в Красную книгу Узбекистана. В работе приводится биология и распространение видов редких и исчезающих видов млекопитающих. Сохранение биологического разнообразия животных в заповеднике и их охрана требует постоянную борьбу с браконьерством, сохранение естественных мест обитания животных, разработка мер искусственного их разведения. В будущем территория заповедника может быть использовано как естественная экологическая система для развития туризма.

THE SUMMARY

At final qualifying job of the student 402 groups of faculty of natural sciences of the Tashkent state university by him. By bottoms on a theme "Mammals Khisor of state reserve"

Among protection of territories of Uzbekistan Khisor the state reserve is allocated with the variety of kinds and geographical landscapes. 31 kinds mammals live in reserve. Almost which half are considered very rare, 7 kinds from them are switched on in the Red book of Uzbekistan. In job the biology and distribution of kinds of rare and disappearing kinds mammals is resulted. The preservation of a biological variety of animals in reserve and their protection requires constant struggle with poaching, preservation of natural places lives of animals, development of measures искусственного of their cultivation. In the future the territory of reserve can be used as natural ecological system for development of tourism.

LUG‘AT

Adaptatsiya	Moslanish	Adaptation
Biologiya	Tirik organizmlarni o‘rganadigan fan	Biology
Dum	Sutemizuvchilarning tana organlarining bir qismi	Tail
Ekologiya	Tirik organizmlaryashaydigan muhit bilan ular orasidagi munosabat	Ecology
Etiologiya	Hayvonlarning xulq-atvori	Etiologiya
Ekoturizm	Tabiiy xududlarga turstlarni jalb etish	Ekoturizm
Hayvonot bog‘i	Hayvonlarsaqlanadigan su‘niy muhit	Zoopark
Hashoroxo‘lar	Sut emizuvchilarni sinfining turkumi	Insectivores
Qo‘lqanotlilar	Sut emizuvchilarni sinfining turkumi	Bats
Mo‘yna	Sut emizuvchilar tana qoplami	Wool
Teriologiya	Sut emizuvchilarni o‘rganadigan fan	Teriologiya
Poda	Juft tuyoqlilar galasi	Animal industries
Oziq	Hayvonlar ist‘mol qiladigan ovqat	A feed
Chorvachilik	Madaniylashtirilgan juft tuyoqlilar	Herds
Nasl	Hayvon bolalari	The inheritance
Ov	Hayvonlarni maqsadli tutish	Hunting
Oila	Sistematik birlik	Family
Sinf	Sistematik birlik	Class
Tip	Sistematik birlik	Tupe
Sikl	Hayot jarayonini almashinishi	Cycle
Tur	Eng kichik sistematik birlik	Kind
Turkum	Sistematik birlik	Group
Xudud	Hayvonlar tarqalgan ma‘lum bir joy	Region
Kemiruvchilar	Sut emizuvchilarni sinfining turkumi	Rodents
Yiritqichlar	Sut emizuvchilarni sinfining turkumi	Carnivores
Juftoyoqlilar	Sut emizuvchilarni sinfining turkumi	Even-Toed ungulates